

Fayoza Mannonova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Musiqali teatr san'ati" kafedrasi o'qituvchisi  
E-mail: fayoza.mannonova@mail.ru

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI NAMANGAN VILOYAT MUSIQALI  
DRAMA VA KOMEDIYA TEATRINING SHAKLLANISHI VA  
TARAQQIYOT BOSQICHLARI (1931–1939)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining muhim madaniy-ma'naviy markazlaridan biri bo'lgan Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatrining tashkil topishi, dastlabki faoliyati, badiiy yo'nalishi, repertuar shakllanishi, professional teatrga aylanish bosqichlari tahlil etilgan. Arxiv hujjatlari, teatr arboblarning esdaliklari va matbuot materiallari asosida yozilgan ushbu maqola 1930-yillar o'zbek teatr san'atining rivojida Namangan teatrining tutgan o'rnini ko'rsatishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** obraz, rejissyor, aktyor, spektakl, teatr, tomoshabin, musiqa, rol, milliy, iste'dod.

**"FORMATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE NAMANGAN  
REGIONAL MUSICAL DRAMA AND COMEDY THEATRE NAMED  
AFTER ALISHER NAVOI" (1931–1939)**

**Abstract.** This article analyzes the establishment, initial activities, artistic direction, repertoire formation, and stages of transformation into a professional theater of the Namangan Regional Musical Drama and Comedy Theater named after Alisher Navoi, one of the important cultural and spiritual centers of the Fergana Valley. This article, written on the basis of archival documents, memoirs of theater figures, and press materials, aims to show the place of the Namangan Theater in the development of Uzbek theater art in the 1930s.

**Keywords:** image, director, actor, performance, theater, audience, music, role, national, talent.

Alisher Navoiy nomidagi Namangan viloyati musiqali drama va komediya teatri Farg'ona vodiysidagi kenja o'zbek teatrlaridan. U o'z faoliyatini 1931-yilning iyun oyida boshladi. 15-iyunda shahar majlisining qarori bilan 18 nafar muallimdan iborat drama to'garak davlat teatriga aylantirildi [1, 31-b].

Ushbu majlisda qabul qilingan qaror teatrning tugal tashkil topganligini tasdiq etuvchi muhim voqealardan biri bo'ldi. Zero, bu yerda uyushtirilishi lozim bo'lgan sostav ustida emas, balki o'z faoliyatini boshlab yuborgan, endilikda esa ishlarini keng yo'lga qo'yib yuborish va buning uchun sostavning yana to'ldirilishi, zarur bo'lgan kollektiv ustida so'z bormoqda. Qarorda "Namangan truppasida qizlar yetishmaganligi uchun, O'zbekiston maorif kommissariatidan bir oz kuch bilan ta'min etishni so'rash, truppa ma'muriyatiga turmushga yaqin, proletariat sahnasiga munosib asarlarni yaratish, ikkinchi asosiy truppa hisoblangan – Andijon truppasiga ekskursiya qilib, rahbarlikni olib borish" vazifalari topshirilgan. Teatrda havaskorlik harakati Namanganda sovet hokimiyatining dastlabki davridayoq boshlangan. Namanganda qo'yilgan birinchi spektakl 1919-yilga oiddir. Bu inqilobiy yillarda o'zining jangovar so'zi bilan ko'ringan jurnalist Himoyiddin Yo'ldoshqoriyev "O'g'uzxon", "Omon polvon" nomli asarlari bilan tanilgan va u "Ko'k ko'ylak" uyushmasi tomonidan sahnaga qo'yilgan [2]. 1922-yilda ushbu asarning yangi varianti "Yosh qurbonlar" nomi bilan "Бокток" klubida qayta qo'yiladi. Bu haqda "Qizil bayroq" gazetasi

1922-yil, 20-iyul sonida xabar bergan. Shoir Rafiq Mo'min ham teatr havaskorlik ishlarida faol ishtirok etgan bo'lib, xususan, uning "Yoril tosh" asari 20-yillarda havaskorlar orasida yoyiladi. 1926-yilda "Sayyor tanqidiy truppa" uyushmasi tuziladi, "Бокток" klubida atoqli sozanda Usta Ro'zimatxon Isaboyev rahbarligida hofiz va sozandalar guruhi tarkib topadi. Bular o'z atrofiga xalq orasidan yetishib chiqqan san'atkorlar va iste'dodli yoshlarni uyushtirgan bo'lib, rasmiy tartibda o'z faoliyatini davom ettirib kelganlar.

Maorif bo'limi qarorining 4-punktida mazkur truppalardagi iste'dodli kishilarni teatr sostaviga uyushtirish masalasi ko'riladi. Namanganda hozirgacha yashab turgan mayda har xil truppalarning hisobini olish va o'zboshimchalik bilan

omma o'rtasiga o'yin olib chiqmasligi haqida ogohlantirilgan edi. Razzoq Hamroyev tashabbusi bilan uyushgan Nasriddin Roziqiy, Boydada Iminiy, Abdulla To'raxonov, Soli Otaxonov, Oysha Ortiqboyeva, Muborak Nuriddinova, Sora Yo'ldosheva, Farida Raxmonova, Aziza Adhamova, Lobarxon Umarova singari o'qituvchilardan iborat truppa sostaviga Usta Ruzimatxon Isaboev boshliq bir guruh san'atkorlar qo'shiladi. Bular Burxonjon Yusupov (chang), Nabijon Muhammadov (nay), Abdurahmon Toshboyev (doira), Ikromjon Tojiboyev (tanbur), Boydada Olimovdek o'sha paytdayoq xalq orasida obro' qozongan sozanda va xonandalar edi.

Teatr xalq uchun yangi davr g'oyalarini ilgari surishda, tarbiyaviy qurol sifatida kerak edi. Uning ishini tez o'nglab yuborish uchun partiya va sovet tashkilotlari zarur choralarni ko'radilar: Shahar maorif bo'limining 1931-yil, 12- avgust qaroriga ko'ra "avval ajratilgan besh ming so'm dotasiya sarf qilib bo'lingani uchun qo'shimcha 10000 so'm miqdorida teatr hisobiga yangi dotasiya o'tkaziladi". Namangan shahar majlisining 1931-yil, 6-avgustda chiqargan qarorida "Босток" klubi teatrning hozirgi ma'muriy binosi o'rni zaminida "75 ming shahar xalqi dam oladigan" teatr binosini tiklash va buning uchun shu joy atrofidagi xo'jaliklarni besh kun ichida boshqa erga ko'chirish haqida ko'rsatma beriladi [3]. Maorif bo'limining 1931-yil, 14-oktyabrda chiqargan 34-sonli qarorida Andijonda ishlab turgan asli namanganlik bo'lgan Mukarrama Azizova va Olim Qosimovlarni teatrga qaytarib kelishga turtki bo'ldi. Shuningdek teatrga Sobir Rahmonov, Tursunxon Ja'farova, Akbar Rahimovalar jalb etiladilar. 1932-yillarga kelganda teatr tarkibi 40 kishidan oshadi.

Teatr bir qarashda tuzukkina tarkibni belgilab olgan bo'lsada, lekin maktab ko'rgan, yoki professional teatrdan xabari bo'lgan na rejissyorga, na rassom va na aktyorga ega edi. Kollektivga boshchilik qilish, rejissyorlik ishlari bilan shug'ullanish vazifasi avval havaskorlik kollektivlari bilan aloqador bo'lgan Razzoq Hamroyev va Nasriddin Roziqiy zimmasiga yuklanadi. Usta Ro'zimatxon Isaboyev musiqa rahbari, aktyorlardan biri, bezak ishlariga layoqatli Hojimirza Sharipov rassom, usta Abdusamad Holiqov grimchi qilib belgilanadilar.

Dastlabki choralarda teatr kollektivi uchun o'sha davrda ikkinchi Respublika drama teatri nomini olib, Farg'ona vodiysiga shuhrati ketgan Yo'ldosh Ohunboboyev nomli Andijon teatri tajribalari namuna bo'lib xizmat qildi. Teatr rasman uyushuvi bilanoq kolektivning katta qismi Andijonga kelib, rejissyor Muzaffar ota Muhamedov rahbarlik qiluvchi teatrning ish tajribalarini o'rganadi: spektakllar ko'radi, sexlar bilan tanishadi, repetitsiyalarda bo'ladi, aktyor va rejissyorlarning suhbatlarini tinglaydi.

Namangan teatrining birinchi spektakli shu o'rganishlar asosida tug'ildi. Bu jurnalist A.Sultonovning "Intilish" asari edi. Kolxoz qurilishi mavzusidagi mazkur asarga R.Isaboyev xalq kuylaridan musiqa bastalaydi va uni N.Roziqiy va R.Hamroyev sahnaga qo'yadi. Andijon teatri rejissyorlari amaliy yordam ko'rsatadilar: Abduvahor Azimov "Hujum", Madaminbek Bahodirov "O'rtoqlar", Rasuljon Sultonov "Ikki boyga bir malay" kabi asarlarni qo'yib beradilar. Bir-ikki mavsum ichidayoq Andijon sahnasidan ketgan "Halima", "Ontarish", "Arshin mol-olon", "Malikai Turondot", "Uylanish", "Signal" kabi asarlar qayta Namangan teatri repertuariga kirib keladi.

Andijon teatri yordamida Namangan teatrida repertuar dunyoga keldi: bu avvalo musiqali drama va sof drama janrlarini baravariga o'stirishga qaratuvchi repertuar ekani bilan qimmatli edi. K.Yashinning "O'rtoqlar", R.Rahimiyning "Ontarish" asarlari esa zamonaviy mavzuni asosiy o'ringa olib chiqishdan dalolat beradi. Aktyorlar hamkasblari ijrosida avval ko'rgan, kuzatgan asarlarini endi o'z sahnalarida o'ynar ekanlar, o'sha Andijon spektakllarida ko'ringan ochiq hajvchilik, sahnaviy bo'yoqdorlik, yumor va improvizatsiyaga moyillik jihatlarini egallash va namoyon etishga urindilar. R.Hamroyevni "Hayotim mazmunini" kitobida "Hujum", "O'rtoqlar", "Malikai Turondot" kabi spektakllarni aktyor faolligini oshirishdagi o'rni haqida batafsil to'xtalishi bejiz emas.

20-yillarda shuhrat topgan musiqali dramalarning qo'yilishi esa tomoshabinlarni teatrga gurullab kelishiga asos bo'ldi. Tomoshabinlarning Halima, Ne'mat singari sevimli qahramonlarni o'z sahnasida ko'rishi, g'ururlanishga arzigulik yuqori ovozli aktyorlarga ega bo'lishi, xalqning azaliy orzu-niyatlari endi

amalg osha boshlaganini ko'rsatar edi. "E'tibor oshirish, tomoshabinlar orttirishda Namangan davlat truppasi kuchlidir, – deb yozgan edi "Zarbdor" gazetasi 1933- yil, 6-fevral sonida, – 1932-yil oxirgi kvartal planini 121 protsent bajardi, 1932-yilda 78 ming so'm sof foyda keltirdi" [4].

Shuni ham qayd etish lozimki, Andijon teatri variantlari asosida tiklangan spektakllar Namangan teatriga foydali tajribalar olib kelish bilan bir qatorda, realistik metodga zid tendensiyalarning kirib kelishiga ham sabab bo'lgan edi. Rejissyorlar ma'lum namunalarni mexanik tarzda tiklash yo'lidan borganlari tufayli, Andijon teatrining ba'zi spektakllarida ko'ringan eklektizm, poetik umumlashma o'rniga turmushga taqlid etish hollari Namangan sahnasiga ham kirib keldi. Bu hol o'rinli ravishda o'sha davr matbuotining ham jiddiy e'tirozlariga sabab bo'lgan. "Aktyorlarni rolga nisbatan o'z hukmini chiqara olmasligi, sahnani shartli ekanini esdan chiqarib, o'sha rolning xuddi o'zi bo'lib ketish, musiqa, yorug', bo'yoqlar g'oyani tomoshabinga tezroq yetkazib berishda yordamchi unsurlar ekanini unutish, ortiqcha dekoratsiyabozlikka berilish va boshqa salbiy hodisalar yanglishlarga yo'l ochgan", [4] – deyiladi teatr haqida chiqqan maqolalardan birida.

Teatrni, avvalo, tashkiliy jihatdan mustahkamlash zarur edi. 1934-yilda teatrga Amin Turdiyev badiiy rahbar bo'lib keladi. Teatrni 1935-yilda shahar Soveti ixtiyoridan Respublika maorif Komissarligi byudjetiga o'tkazilishi, uning tashkiliy qayta qurilishida jiddiy voqea bo'ldi. Teatrga "Akmal Ikromov nomidagi Namangan Davlat musiqa teatri" degan nom berilib, vokal, drama, balet va orkestr uchun alohida shtatlar ajratiladi. A.Turdiyev, garchand, rejissura sohasida o'zini ko'rsatishga hali ulgurmagan bo'lsa-da, lekin aktyor sifatida sog'lom sahnaviy tajriba orttirgan, zamonaviy teatrning xususiyat va vazifalarini yaxshi his etuvchi san'atkor edi. U Namangan teatrini ijodiy qayta qurish ishiga alohida tashabbuskorlik bilan kirishadi. Uning ishtiroki va rahbarligida 1936-yilda Toshkentda teatrning dekadasi va 1937-yilda besh yillik yubileyi o'tkaziladi.

Namangan teatri A.Turdiyevning kelishi bilan eng yetuk o'zbek kollektivi bo'lmish Hamza nomli O'zbek davlat akademik drama teatri ta'siri ostida rivojlanib boradi. A.Turdiyev sahnalashtirgan ayrim spektakllarda "Hamza" teatrida

qo'llanilgan talqin usullarini qaytarilganligi tabiiy. Masalan, u Ziyosaid va N.Safarovning "Tarix tilga kirdi" asarini qo'yar ekan, uni Hamza nomli teatr postanovkasiga qiyosan yaratilganligini inkor etmagan edi. Lekin masala mutlaqo bunda emas edi. Ajoyib san'atkorlarga ega bo'lgan Hamza nomli teatr 30-yillarning boshidan o'zbek dramaturgiyasining chin laboratoriyasiga aylanadi. Komil Yashil, Umarjon Ismoilov, Nazir Safarov, Zinnat Fathullin kabi dramaturglar, aynan Hamza nomli teatr orqali dramaturg sifatida balog'at topib, xalqqa tanila boradilar. Qaysiki viloyat teatri rejissura, yoki aktyorlik sohasida yirik muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan ekan, bunga avvalo, shu akademik teatrning ilg'or tajribalarini anglash, ularni ong'li ravishda o'zlashtira borish orqali erishganlar.

Namangan teatri akademik teatr repertuaridagi asarlarni olish bilan o'z repertuarini boyitdigina emas, u avvalo, ijtimoiy qimmatini baland, adabiy jihatdan mukammal asarlarga duch keldi. Bu hol rejissyor va aktyorlarga asarga yangicha yondashish, o'z iste'dodlarini namoyon etish imkoniyatlarini berdi.

Oktyabr inqilobi mavzusiga bag'ishlangan, o'tmishning alamli lavhalarini jonlantiruvchi U.Ismoilovning "Rustam" asari ko'pgina namanganlik san'atkorlar biografiyasida bosqich bo'lib qoldi. Teatr "Vatan" bog'ida tiklangan yozlik binosining 1935-yil 12-mayda shu spektakl premyerasi bilan ochgan edi. Yangi binoga armug'on bo'lganidan ham u butun kollektivning ardoqli spektakli tarzida tug'ildi. Razzoq Hamroyev shu spektaklda birinchi marta, pul va zo'rlikka qarshi isyon ko'targan, jo'shqin qalbli qahramon "Rustam" qiyofasida ko'ringan edi. Tursunxon Ja'farova "Qimmat", Mukarrama Azizova "Hamro", Mirzajon Dadaboyev "Petrov" singari aktyorlar ilhombaxsh izlanishlar olib bordilar. "Rustam" spektaklining yana bir jihati shundaki, u aylanma sahnada, rus rassomi Patyomkinning ixcham, obrazli bezagi bilan qo'yilgan bo'lib, o'zining badiiy birligi, musiqa, nur kabi ifoda vositalarida uyg'unlik hosil etgani bilan qimmatli edi.

K.Yashinning "Tor-mor" asarini qo'yishga shu dramani Hamza nomli teatrdan sahnalashtirgan atoqli rejissyor Etim Bobojonov taklif qilinadi. E.Bobojonov mualliflar bilan ishlash, o'zbek dramaturgiyasi asarlarni qo'yishda eng yetuk rejissyorlardan biri sifatida ko'zga ko'ringan edi. Agar Hamza nomli teatr 30-

yillarda erishgan ikki cho'qqining biri "Gamlet" spektakli Mannon Uyg'ur iste'dodini namoyish etgan bo'lsa, ikkinchisi "Boy ila xizmatchi" postanovkasi E.Bobojonov izlanishlarining samarasi bo'lgan edi.

1937-yilda teatr F.Shillerning "Makr va muhabbat" asariga murojaat qiladi. V.Vitt tomonidan qo'yilgan bu spektaklning ba'zi nuqsonlarini, xususan, ayrim epizodlarni asossiz olib tashlaganligi, Gofmarshal (S.Rahmoniy) obrazini "haddan tashqari oshirib o'ynalgan"ligi matbuotda tanqid qilingan. Bundan qat'iy nazar "Makr va muhabbat" teatr hayotida G'arb dramaturgiyasidan olingan birinchi tragediya sifatida iz qoldirdi. Ma'rifatchilik davrida nemis hayotiga xos asror-u atiqalar, hashamdor saroy ko'rinishi, pariklar (grimchi A.Abdullayev), kiyim-kechaklar, ayniqsa, spektaklda yetakchi yo'nalish tarzida jaranglagan Ferdinand (R.Hamroyev) va Luiza (T.Jafarova)ning samimiy muhabbati, ularning o'z erki uchun intilishlari tomoshabinlar uchun katta yangilik edi.

Namangan teatrini Farg'ona vodiysidagi boshqa teatrlardan farqli ravishda "Musika teatri" deb nomlanishi diqqatga loyiq. Bunday nomga musiqa va vocal ijrochilik sohasida kuchlarning mavjudligi asos bo'lgan edi. Usta Ro'zimatxon Isaboyev boshliq sozandalar safini kengayib berganligi, ovozli aktyorlarni konsert ijrochilikda ham, spektakllarda ham yaxshi ko'rinib borganligi Namangan teatrini ko'proq musiqali teatr tarzida o'sishiga sabab bo'ldi.

1934-yilning may-sentyabr oylarida R.Hamroyev, K.Yashin va M.Muhammadovning "Ichkarida", M.Azizova va O.Qosimov Xurshidning "Farhod va Shirin" musiqali dramalarini qo'yadilar. Shu spektakllar teatrni musiqali drama sohasida keng imkoniyatlarga ega ekanini tasdiq etdi. Matbuotda "Farhod va Shirin" spektakli "katta muvaffaqiyat, zo'r jasorat" deya ta'riflanar ekan, bunda M.Azizovani "g'ayrat ko'rsatib" Farhodning kurashini asosiy mavzu tarzida ifoda etganligi, yoki rus rassomi Patyomkin bilan birgalikda "Ortiq zavq berarli darajada haqiqiy o'sha zamon" [5] ruhini aks ettirganligi ko'zda tutilmas edi. Har bir rolni ikki yoki uch aktyor o'ynab, Farhod – I.Tojiboyev, Shirin – T.Ja'farova, M.Azimova, – ularning har biri o'z ovozi, qaynoq nafasi bilan ko'ringanligi ham e'tiborga olingan edi.

Musiqali dramani quloqch yoydirish teatr rivojlanishining obyektiv talabi edi. Buni A.Turdiyev ham angladi va shu maqsadda teatrga malakali mutaxassislarni jalb etishga urindi. Shoir Abdulhamid Majidiy bilan yaratilgan "Otasiz" ham shu urinishning samarasi edi.

Asarda o'g'irlanib, befarzand xonga "in'om" etilgan farzand, o'g'il dardida sarson kezgan Ota baxshi haqida hikoya qilinadi. 3 parda, 9 ko'rinishli bu asarni Xorazm dostonchiligi ruhida, she'riy tarzda yozilganligi, unga musiqa bastalagan Usta Ruzimatxon Isaboyevga samimiy, xalq ohanglariga to'la, anchagina, arya va qo'shiqlarni yaratish imkonini bergan edi. Spektaklning shu jihati va xonlik sharoitida farzand dog'ida kuygan ota-onalarning ayanchli taqdiri zalga sig'may ketgan tomoshabinlarning qayta-qayta qilgan olqishlari, sahnaga otilgan guldastalari postanovkaning juda maroqli va go'zal chiqqanini tasdiqlaydi. Bu bosh rejissyor A.Turdiyev va yordamchi rejissyor E.Sharipovlarning g'ayrat bilan ishlaganligini ko'rsatadi [6], – deb yozdi gazeta.

Orkestr ifodaviyligini oshirish, professional vokal ijrochiligini chuqurlashtirish – kollektiv oldida turgan muhim vazifalardan edi. Shu ma'noda "Layli va Majnun" (1935) spektakli ustidagi ish teatr uchun chin bosqichga aylanadi. Kollektiv birinchi bor shu spektaklda Respublika musiqa teatri tajribalarini uning rejissyori M.Muhammadov rahbarligida birga ish olib borgan vakillari: kompozitor Tolibjon Sodiqov, baletmeyster T.Kukina, konsertmeyster J.Kostyuchenkolar orqali o'zlashtirishga uringan edi. Ayniqsa, bu ijodiy guruhda musiqa muallifi T.Sodiqov va Layli rolining ajoyib ijrochilaridan Nazira Ahmedovaning ishtirok etganligi orkestr jarangi va uyg'unligini oshirishda, qahramonlar ruhiyatini ifoda etishda yosh dirijyorlar B.Yusupov, K.Mansurov kabi sozandalarga, aktyorlar Layli – T.Ja'farova, Majnun – I.Tojiboyevga misoli maktab bo'lib xizmat qilgan edi.

Teatrning besh yilligiga sovg'a tarzida A.Turdiyev, R.Hamroyev, M.Azizova 1936-yilning noyabrida "Gulsara" spektaklini yaratadilar. "Gulsara" avval qo'yilgan "Ichkarida"ning dramaturgik va musiqaviy jihatdan qayta ishlangan yangi varianti bo'lib, teatr shu variantda xotin-qizlar ozodligi mavzusini davr taqozosiga ko'ra keng ko'lamda ifoda eta oldi. Matbuot dirijyor B.Yusupovning "32-xil kuyni

Namangan sharoitiga qaratib, ishlab chiqqani”

[7] haqida yozadi. Bu sahnaviy xatti-harakat, musiqaviy va vokal ifodalari orasida garmonik birlik tug'ilganini anglatuvchi izoh edi. Spektakl kontrastik tasvir va ko'rinishlar asosiga qurilgan bo'lib, bundan asosiy maqsad davrning bosh mavzusi bo'lmish – paranjiga qarshi kurash g'oyasini yana ham kuchaytirib tasvirlash edi. Bu butun postanovkaning pafosini belgilab berardi. Spektaklning yurak tepishi ikki aktrisaning iste'dodi bilan belgilanadi. Bular Gulsara va Oysara rollarining mohir ijrochilari sifatida ko'ringan Tursunxon Ja'farova va Mukarrama Azizova edilar.

1931–1939-yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Namangan musiqali drama va komediya teatri havaskorlik asosida boshlangan faoliyatini qisqa fursatda professional bosqichga olib chiqdi. Andijon va Hamza teatrlarining tajribalaridan unumli foydalanish, kuchli ijodiy rahbarlarning sahnalashtirishda qatnashuvi, repertuar tanlovining ijtimoiy va estetik jihatdan puxta tashkil etilishi teatrning tez sur'atlarda yuksalishiga sabab bo'ldi.

Namangan teatri o'zbek teatr san'atining shakllanishida muhim o'rin egalladi. Ayniqsa musiqali drama, realistik aktyorlik maktabi, yangi avlod aktyor va rejissyorlarini tayyorlashda teatrning xizmatlari alohida e'tirof etishga loyiqdir.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Хамраев Р. Хаetim мазмуни. – Тошкент: Гафур Гулям, 1981.*
2. *Известие. Наманганского Совдеп, 1919 йил, 6 август.*
3. *Наманган область давлат архиви. Ф.13.1.д.336.1.19.*
4. *Газета. Зарбдор, 1932 йил, 30 май, 50 сон.*
5. *Газета. Удамик, 1934 йил, 28 октябрь, 114 сон.*
6. *Газета. Зарбдор, 1936 йил, 17 август, 135 сон.*
7. *Газета. Удамик, 1938 йил, 30 март, 73 сон.*